

**ULUG‘BEK XAZINASI ASARIDA PSIXOLOGIK TASVIR ORQALI
SHAXS FOJIASI IFODASI**

Iskandarova Fotima Shuxrat qizi,
University of Business and Science
Magistratura 1-bosqich talabasi
E-mail: fotimaiskandarova077@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” asarida bosh qahramon Mirzo Ulug‘bek obrazi orqali shaxs fojiasi psixologik tasvir vositalari asosida tahlil qilinadi. Asarda insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari hamda ilm-fan va siyosat o‘rtasidagi ziddiyat ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: psixologizm, shaxs fojiasi, ichki kechinma, tarixiy obraz, ruhiy konflikt, ilm va siyosat.

Аннотация. В данной статье анализируется трагедия личности на примере образа главного героя Мирзо Улугбека в произведении Одила Ёкубова «Сокровище Улугбека» с использованием средств психологического изображения. В произведении раскрываются внутренние переживания человека, его душевные страдания, а также противоречие между наукой и политикой.

Ключевые слова: психологизм, трагедия личности, внутренние переживания, исторический образ, психологический конфликт, наука и политика.

Annotation. This article analyzes the tragedy of an individual through the image of the main character, Mirzo Ulugbek, in Odil Yoqubov’s novel “Ulugbek’s Treasure,” using psychological means of depiction. The work reveals a person’s inner experiences, emotional suffering, and the conflict between science and politics.

Keywords: psychologism, personal tragedy, inner experiences, historical image, psychological conflict, science and politics.

Kirish. Badiiyatda yuksak muvofiqlik, uyg‘unlik, muhim ijtimoiy muammolar, ijtimoiy hodisalar va dolzarb g‘oyaviy mazmuni ifodalash uchun yozuvchi mahorati muhim ahamiyat kasb etgan. Muallif asardagi badiiy konfliktida borliqdagi ziddiyatlarni haqqoniy qayta jonlantirishdan tashqari, tasdiqlash va inkor etish xususiyatlarini ham mujassamlaydi. Chunki borliqdagi qarama-qarshiliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri badiiy asarlarga ko‘chirish mumkin emas. Har qarday badiiy konflikt tarixiy sharoitning in‘ikosi sifatida ro‘yobga chiqadi, uning ortida sotsial-ijtimoiy sabablar yotadi. Shuning uchun ham badiiy konfliktni ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan ko‘rinishi mavjud. Chunonchi, badiiy konfliktning estetik tabiati uning san’at, borliqning obrazli ifodasi sifatidagi tabiatidan kelib chiqadigan sotsial va tarixiy determenizmini inkor etmaydi.

Psixologik tasvir — qahramonning ichki dunyosi, fikrlari, his-tuyg‘ulari va ruhiy holatini badiiy vositalar orqali ifodalashdir. O‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazini yaratishda psixologik tasvir muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” asari bu borada alohida ahamiyatga ega. Asarda buyuk olim va hukmdor Mirzo Ulug‘bek hayoti orqali insonning ichki fojiaiy kechinmalari yoritilgan.

Psixologik tasvir badiiy adabiyotda qahramon ruhiyatini ochishning eng muhim vositalaridan biridir. Asarda bosh qahramon ruhiyati ichki monologlar, dialoglar va tasviriy ifodalar orqali ochib beriladi.

Mirzo Ulug‘bek obrazida ilm-fan va siyosat o‘rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo‘ladi. U ilmga intilgan olim sifatida tinch hayotni istaydi, biroq hukmdor sifatida murakkab siyosiy qarorlar qabul qilishga majbur bo‘ladi. Bu holat qahramonning ichki ruhiy iztiroblarini kuchaytiradi.

Asarda shaxs fojiasi quyidagi jihatlar orqali ifodalanadi:

- 1) ichki ziddiyat va qarama-qarshiliklar;
- 2) yolg‘izlik va tushunilmaslik hissi;
- 3) ishonch va xiyonat muammosi;
- 4) ideallar va real hayot o‘rtasidagi tafovut.

Muallif psixologik vositalardan mahorat bilan foydalanib, qahramonning ichki dunyosini chuqur ochib beradi. Bu esa asarning badiiy qiymatini oshiradi.

Asarda quyidagi psixologik vositalar keng qo‘llaniladi:

Ichki monolog, dialog, muallif tasviri, badiiy ifodalar.

Psixologik tasvirni tushuntirishda quyidagi tushunchalar muhim:

- 1) Ichki ziddiyat – shaxs ichidagi qarama-qarshi fikr va istaklar kurashi
- 2) Ruhiy nomuvofiqlik – insonning o‘y-fikri bilan amaliy harakati o‘rtasidagi mos kelmaslik, ilm va siyosat o‘rtasidagi tanlov. Bunga quyidagi vaziyat yaqqol misol bula oladi. Ulug‘bek rasadxona qurib, ilm bilan shug‘ullanishni istaydi. Ammo davlat boshqaruvi va saroydagi siyosiy kurashlar bunga to‘sqinlik qiladi. Bu esa unda ichki ziddiyat – “olim” va “hukmdor” vazifalari o‘rtasidagi kurash, ruhiy nomuvofiqlik – ilmiy qarashlar bilan siyosiy majburiyatlar o‘rtasidagi tafovut, ruhiy bosim – maqsadga to‘liq erisha olmaslik.

Qahramon ruhiy iztiroblarga duch kelganida yaqin insonning xiyonatini boshdan o‘tkazadi. Ulug‘bek o‘z o‘g‘li tomonidan xiyonatga uchraydi. Bu uning ishonchining buzilishi – yaqin insondan zarba olishiga olib keladi. U ruhiy jarohat – kuchli iztirob oladi. unda ichki sinish – umidsizlik holati paydo bo‘ladi.

Natijada bu holat shaxs fojiasining eng yuqori darajasini ifodaladi. Ulug‘bekdagi yolg‘izlik va tushunilmaslik unda ijtimoiy ajralish, ruhiy yolg‘izlik, tushkunlik holatini paydo qiladi. Natijada qahramon jamiyatdan ruhiy jihatdan uzoqlashadi.

Mirzo Ulug‘bek obrazi orqali ilm-fan va siyosat o‘rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo‘ladi. U ilmga intilgan olim sifatida tinch hayotni istaydi, biroq hukmdor sifatida murakkab siyosiy qarorlar qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Asarda muallif mahorati psixologik tasvirlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Odil Yoqubov psixologik tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. U qahramonning ichki dunyosini quyidagilar orqali ochadi:

- 1) ichki kechinmalarni chuqur ifodalash;
- 2) obrazlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni ko‘rsatish;
- 3) tarixiy voqealarni ruhiy tahlil qilish.

Natijada o‘quvchi qahramonning ichki dunyosini chuqur his qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asarida psixologik tasvir orqali shaxs fojiasi chuqur va ta’sirchan ifodalangan. Mirzo Ulug‘bek obrazi orqali ilm-fan yo‘lida kurashgan, ammo siyosiy muhit sabab fojiaga uchragan inson taqdiri ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. – Toshkent: Sharq, 2018. – 289 b.
2. Karimov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.– 205 b.
3. Qo‘chqorov R. Badiiy mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 189 b.
4. Rasulov A. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 256 b.
5. G‘afurov I. Badiiy tafakkur va uslub. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 178 b.
6. Sodiqov Q. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 312 b.
7. Hamdamov U. Adabiy tanqid asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2017. – 224 b.
8. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2008. – 198 b.
9. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2011. – 230 b.
10. Karimov H. Badiiy asar tahlili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014. – 176 b.